Yondosh mavzu:
maktab.

Ko‘p sonli qo‘shish,
yig‘indi.



Shaklning yuqoridan ko‘rinishini toping.



**1.** Doiralarni beshtadan guruhlab sanang.



Kubiklarni o‘ntadan guruhlab sanang.





**Bir xill qo‘shiluvchilar yig‘indisi uchun anchagina qisqa yozuv o‘ylab topilgan:**

$$\underbrace{5 + 5 + 5 + 5 + 5 + 5}_{6} = 5 \cdot 6$$

**Bu yangi amal ko‘paytirish deb ataladi.**
**Bunday deyish mumkin: “5 ni 6 ga ko‘paytirish”.**

**2.** Masalani yechish uchun ifoda tuzing. Har bir sinfda 35 nafardan o‘quvchi o‘qiydi. To‘rtta sinfda hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi o‘qiydi?

**3.** Ko‘paytirish yordamida yozing va hisoblang.

2 + 2 + 2 + 2 + 2 7 + 7 + 7
3 + 3 + 3 + 3 20 + 20 + 20 + 20 + 20

**4.** Qisqaroq ko‘rinishda yozing.

101 + 101 + 101 + 101 8 + 8 + 8 + 8 + 8
$x + x + x + x + x + x$ $y + y + y$

**5.** Ko‘paytmani yig‘indi bilan almashtiring va hisoblang.

| | | |
|---|---|---|
| 6 · 2 | 8 · 3 | 10 · 5 |
| 5 · 4 | 11 · 3 | 100 · 7 |

**6.** Taqqoslang, o‘z javobingizni tushuntiring.

50 + 50 + 50 va 50 · 3
30 + 30 + 30 va 40 · 3
19 + 19 + 19 va 19 · 4
25 + 25 + 25 + 25 va 25 · 3

**ikkita**

**7.** Jadval bo‘yicha maktabda hammasi bo‘lib necha nafar o‘qituvchi ishlayotganini aniqlang.

| Fanlar | O‘qituvchilar soni |
|---|---|
| Matematika va informatika | 10 nafar |
| Ona tili va adabiyot | 22 nafar ko‘p |
| Tarix va tarbiya | 18 nafar kam |
| Boshqa fanlar | qancha bo‘lsa, shuncha |

**8.** Maktabda ijtimoiy, texnik va ijodiy to‘garaklar faoliyat ko‘rsatadi. Ijtimoiy to‘garaklarga 365 nafar, texnik to‘garakka ijtimoiy to‘garakdagidan 78 nafar kam o‘quvchi qatnaydi. Bu to‘garaklarga hammasi bo‘lib 920 nafar o‘quvchi qatnaydi. Ijodiy to‘garakka necha nafar o‘quvchi qatnaydi?

**9.** Sonlar yig‘indisi ko‘rinishida yozing va hisoblashlarni bajaring.

| | | |
|---|---|---|
| 7 · 5 | 8 · 4 | 9 · 2 |
| 5 · 6 | 3 · 6 | 2 · 9 |